



**MAGISTR TALABALARNING KREATIV QOBILIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI VA UNI
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

Yandasheva Gulchexra Sabirjanovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” kafedrasi dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20688907>

Annotatsiya. Ushbu maqolada magistr talabalarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishning mavjud holati va uni takomillashtirish yo'llari yoritilgan bo'lib, zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi, Kreativ kompetensiyaga asoslangan yondashuvning afzalliklari, talabalarda kreativlikni rivojlantirish yo'llari hamda pedagogik kreativlikning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyatiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik kreativlik, kreativlik sifatlari, kreativlikni rivojlantirish, kasbiy-innovatsion tayyorgarlik, intellektual qobiliyat, tafakkur, ijodiy salohiyat, shaxsiy pozitsiya, ta'lim kompetensiyasi, ijodkorlik, faollik, kognitiv-ijodiy qobiliyat.

Hozirgi globallashuv va raqobatga asoslangan iqtisodiy sharoitida ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabalarda kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, pedagogika yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarning kreativ kompetentligi – ularning kelgusida ijodkor va mustaqil fikrlovchi o'qituvchi sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq.



Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etiladi. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lish uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini, kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Oliy ta'lim tizimida o'qish faoliyatida bo'lgan talabalar kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari uchun ularda o'quv-tarbiya jarayonida an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalar haqida fikr yuritishi, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega bo'lajak pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, talabalarning o'quv faoliyati, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi.

Pedagog olimlar tomonidan o'qituvchilarning kasbiy hamda kreativ kompetentligini rivojlantirish borasida bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayevlar tomonidan "Pedagogik kompetentlik" tushunchasining mohiyati, pedagogga xos kompetentlik sifatleri, ularni rivojlantirish yo'llari, pedagogik mahoratning tarkibiy asoslari, pedagogik kreativlikning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati mazmunan ochib berilgan.

Zamonaviy ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'limni isloh qilishning yetakchi uslubiy asosi sifatida qaraladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirishning yana bir jihati talaba xarakteridagi umumlashtirilgan malakalarni shakllantirish, ularga muammoli vaziyatlar yechimlarini topish kreativlik qobiliyatini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Kreativ kompetensiyaga asoslangan yondashuv magistr talabaning ongliligini emas, balki qobiliyatini birinchi o'ringa qo'yadi va quyidagi holatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga yordam beradi:

- voqelik hodisalarini bilish va tushuntirishda;



- zamonaviy texnika va texnologiyani o'zlashtirganda;
- ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasidagi munosabatlarda;
- ijtimoiy rollarni bajarishda amaliy hayotda.

“Kreativ kompetensiya” egallagan bilimlar, bilimlar tizimini mustaqil ravishda to'ldirish va o'z-o'zini takomillashtirish jarayoni hisoblanib, talabalarda kreativlikni quyidagi yo'llar orqali rivojlantirish mumkin:

1. Nazariy bilimlarni talaba ongiga chuqur singdirish.
2. Ularda amaliy kreativ faoliyat ko'nikmalarini hosil qilish.
3. Faoliyat jarayonida kreativ g'oyalarni amalga oshirishga yordam beruvchi metod va vositalardan foydalanishni tashkil etish

Nazariy bilimlarni talabalar ongiga singdirishning ilmiy-pedagogik yondashuvlari.

1. Faol o'qitish usullaridan foydalanish.
2. Talabalar passiv tinglovchi emas, faol ishtirokchi bo'lishi lozim.
3. Munozara, jamoaviy ishlar, keys-tahlil, debat, “akslantirish” usullari nazariy bilimni o'zlashtirishga yordam beradi.

Nazariy bilimlar talabalar ongiga samarali singdirilishi uchun:

- ♣ ta'lim faol, hayajonli va shaxsiy ehtiyojlar bilan bog'langan bo'lishi;
- ♣ talabalar mustaqil fikrlash va amaliy holatlarda bilimni qo'llash imkoniga ega bo'lishi;
- ♣ bilim vizual, assotsiativ va interaktiv vositalar bilan taqdim etilishi lozim.

Magistr talabalar o'zlarining kreativ qobiliyatlarini qachonki qulay o'qitish muhiti yaratilgandagina namoyon eta olishadi. Bu uchun pedagoglar tizimli yondashuv tamoyillarini o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi, faoliyatini texnologiyalashtirishi ijtimoiy zarurat ekanligini tushunishi, o'quv jarayonidagi innovatsion metod va texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslarini bilishi va ularni amaliy faoliyatda to'g'ri joriy qila olishi ko'nikmasining mavjudligi. Asosiysi interfaol ta'limni tashkil etishi kerak.



Ko'pgina ilmiy tushunchalarda iqtidor va uning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar talabani ijodiy qobiliyatlari bog'liq bo'lib, kreativlik sifatida belgilanadi. Kreativlik fikrlash, muloqot va muayyan faoliyat turlarida o'zini namoyon qilishi mumkin. Bu shaxsni bir butunlik sifatida yoki uning individual qobiliyatlarini tavsiflashi mumkin. Shaxsning kreativlik xususiyatlari uning o'rganish qobiliyatiga bevosita bog'liq emas, ular har doim ham aql-idrokni ishlatish jarayonida aks etmaydi. Aksincha, kreativlikni mavjud bilimlarning xilma-xilligi bilan emas, balki o'rnatilgan yangi g'oyalarni qabul qilish orqali rag'batlantirish mumkin. Ijodiy yechimlar ko'pincha talabalar erkin paytida paydo bo'ladi. Ijodiy xulq-atvor va o'zini namoyon qilishning ba'zi jihatlari va usullarini o'rgatish, turli faoliyat sohalarida ijodiy harakatlar va qobiliyatlarni modellashtirish tajribasi ijodiy fikrlash ko'rsatkichlarining sezilarli o'sishini, shuningdek, shaxsning bunday fazilatlarini paydo bo'lishi va mustahkamlanishini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Usmonboyeva M, To'rayev A. Kreativ pedagogika asoslari. O'quv – uslubiy majmua. - T.:TDPU 2016. – 144 b
2. Uranchimeg Tudevdayva. Structure - Oriented Evaluation. An Evaluation Approach for Complex Processes and Systems. Springer, 2020, P.
3. Утёмов В.В, Зинковкина М.М, Горев П.М. Педагогика креативности: прикладной курс научного творчества // Учеб.пособие. – Киров: АНОО “Межрегиональный ЦИТО”, 2013. – 212 с.
4. Verbitsky, A.A. The theory of contextual education as a conceptual basis for the implementation of the competence approach. Collection of humanitarian studies, 2(2), (2016), pp. 6-12.
5. Вербицкий А.А. Контекстно–компетентностный подход к модернизации образования // Высшее образование в России. – 2010. – 234 № 5. – С. 32–37.



6. Xodjayev B.X. O'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish yo'llari. – T. : TDPU, 2008. – 65 b.
7. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно ориентированной парадигмы образования // Народное образование, 2003. №2. С. 168-173.
8. Yarova S.B. Talabalarda tayanch kompetentlilikni innovatsion hamkorlik asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: p.f.f.d (PhD) dissertatsiya avtoreferati.: - 2025. – 24 b.
9. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход к образованию // Педагогика. - М.: 2005. – № 3. – С. 27-40.